



BUXORO VILOYATI MAK TABGACHA VA MAK TAB TA`LIMI BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI

“Xotira-muqaddas, Xotira-sharaf”

9-may Xotira va qadrlash kuniga atab metodik qo'llanma



Ushbu qo‘llanmada 9-may – “Xotira va qadrlash kuni”ning tarixiy va ma’naviy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Xususan, bu sana O’zbekiston xalqi uchun nafaqat urushdagi g’alaba timsoli, balki ma’naviy birlik, tarixiy xotira va insoniy fazilatlarni qadrlash ifodasi sifatida yoritiladi. Metodik qo‘llanmada xotira va jasorat tushunchalari falsafiy va dinshunoslik nuqtai nazaridan ko’rib chiqilib, urush qatnashchilarining fidoyiligi va ularning qahramonligi zamonaviy jamiyat uchun qanday ma’naviy saboqlar berishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg‘usi bilan barhayotdir. Xotira – kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi.

Qadr – insonni yuksaklikka ko‘taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga oljanoblik bag‘ishlaydi.

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va oljanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo‘qotgan xonodon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo‘la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik – taraqqiyot garovidir.

Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g‘oya targ‘ibiga bag‘ishlangan buyuk milliy ma’naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ‘ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

9-mayni Xotira va Qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

II jahon urushida O‘zbekistonimizdan 1 million 433 ming 230 nafar odam ishtirok etdi. 604 ming 52 nafar hamyurtimiz urush maydonlaridan nogiron bo‘lib qaytdi, 450 mingdan ortiq vatandoshimiz esa qonli janglarda halok bo‘ldi.

Hamon oramizda qanchadan-qancha urush qatnashchilari, front ortida mehnat-mashaqqat chekkanlar bor. O‘tganlarni xotirlash, safimizda yurganlarning esa qadriga yetish kerak.

Mustaqil O‘zbekiston xalqi va davlati avval-boshdan tinchlik-totuvlik tarafdori sifatida maydonga chiqdi.

Ana shu asoslarga ko‘ra, mustaqillik yillarida ham bizda 9- may umumxalq bayrami sifatida, 1999- yildan boshlab esa Xotira va Qadrlash kuni sifatida nishonlaymiz. Darhaqiqat, Mustaqil davlatning bayramlari ham xalq tabiatи va an’analariiga mos bo‘lishi kerak. Chunki har bir xalq qanday yashashi, nimani qadrlashi, qaysi sanalarni tantana qilishini o‘zi hal etadi. Bunda o‘z tarixidan kelib chiqadi, bugunini o‘ylaydi va kelajagini ko‘zda tutadi.

Xotira va Qadrlash kuni endi o‘zgacha, aniqrog‘i, milliy xususiyat kasb etdi. Bu bayramning mazmun-mohiyati butkul o‘zgardi – u xalq xotirasi va insonni qadrlash kuniga aylandi.

Xotira va Qadrlash kuni chinakam milliy – umumxalq bayramiga aylandi. Shu kuni O‘zbekistonning barcha qabristonlaridan ziyoratchilar arimaydi.

Bu bayramda Ikkinci jahon urushida halok bo‘lganlar xotirlanadi, Afg‘oniston urushida halok bo‘lganlar sho‘ro siyosatining begunoh qurbanlari sifatida eslanadi, umuman, o‘tganlar ruhi yodga olinadi, mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltiriladi.

9-mayning Xotira va Qadrlash kuni deb e’lon qilinishi bizda siyosatning insoniylashganidan, davlatning hazrati insonga qayishganidan dalolat beradi. Urushda halok bo‘lgan har bir o‘zbekistonlik – Vatanimiz farzandi edi. Ularni yoddan chiqarishga hech birimizning haqqimiz yo‘q. Istiqlol yillarda 35 jildlik “Xotira” kitobi chop etildi. Endi esa urush qurbanlarining nomi mamlakat poytaxtidagi Xotira maydoniga o‘rnatilgan temir “daftar”ga zarhal harflar bilan bitib qo‘yildi.

Bu yerga ziyoratga kelgan har bir vatandoshimiz, albatta, o‘z jigari, hech bo‘limganda, biror qo‘sni ning nomiga duch keladi. Beixtiyor, o‘tganlar ruhiga tilovatu duolar qilib, yuziga fotiha tortadi...

Hozir barcha mintaqalarimiz, ko‘plab shaharlarimiz va tumanlarimiz markazlarida ham shunday xotira maydonlari barpo etildi, bu xayrli ish izchil davom ettirilyapti.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: “Xotira va qadrlash deganda biz, avvalo, o‘zimizni inson sifatida anglashni, odamiylik fazilatlarini ulug‘lashni nazarda tutamiz”, – degan qimmatli so‘zлari zamirida ana shunday mohiyat yotibdi.

Kuni kecha O‘zbekiston prezidentining “Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” farmoni imzolandi.

Ushbu farmonga asosan Mamlakatimizda 9 may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinci jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘sheyotgan faxriylarni e’zozlash hamda fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 78 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilarini va nogironlarini moddiy rag‘batlantiriladi. Ushbu pul mukofotlari Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini va nogironlariga tantanali va bayramona vaziyatda topshiriladi.

Davlat tarafidan ko‘rsatilayotgan bu g‘amxo‘rliklarning bari mazkur umumxalq bayrami mazmunidagi qadrlash mohiyatining amaliy jihatini yaqqol namoyon etadi.

Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun ham urushni, uning

qahramonlarini, g‘alabaga munosib hissa qo‘sghan hech bir kishini xotirasidan forig‘ qilmaydi.

Xotira va Qadrlash kunini munosib nishonlashdan ko‘zlagan bosh maqsadimiz – Vatan himoyachilarini xotirlash, oramizdagi fidoyi insonlarning, tinchlikning qadriga yetish, urushni qoralash, tinch-osoyishta yashayotganimiz, turmush farovonligini ta‘minlash uchun ter to‘kib, unumli mehnat qilayotganimizning shukronasini qilishdan iborat.

Bu har qanday kishini ma‘nan rag‘batlantiradi, uni yashashga, yaratishga, elu yurtga sadoqat va qat‘iyat bilan xizmat qilishga undaydi.

Zero xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir.

Kirib kelayotgan qutlug‘ kun, 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan barcha fahriyalarimizni, aziz yurtdoshlarimizni tabriklaymiz!

Fashizmga qarshi urushda mardonavor jang qilgan, og‘ir mashaqqat va musibatlarni boshdan kechirgan qahramonlar va xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun o‘z jonini qurban qilganlar xotirasi hamisha yodimizdadir albat. Vatanini himoya qilishda jonini fido qilgan, xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan milliy qaxramonlarimizni ruhi oldida yana bir bor ta‘zim aylaymiz.

Ajdodlar ruhiga hurmat xalqimizning eng oliy fazilatlaridan biridir. O‘zbek xalqi vatani, xalqining farovonligi, tinchligi yo‘lida jonini fido etgan farzandlarini hech qachon unutgan emas. Islom dini inson naslini mukarram sanaydi, Allohning maxluqotlari ichidagi eng azizi va ehtiromga munosibi deb baholaydi. Inson aziz va mukarram ekan, uning yoshi ham, qarisi ham, ayoli ham, erkagi ham barobar qadr-qimmatga egadir. Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma’noga egadir. Insoniyat Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, o‘sha ayovsiz jangu-jadalda qahramonlarcha halok bo‘lganlar xotirasini aslo unutmeydi.

9-may – “Xotira va qadrlash kuni” mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e’zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardandir. Binobarin, xotira bu – unutmaslik, deganidir. Sohibqiron Amir Temur ham so‘zini “Bizkim...” deya o‘z Vatanini, xalqini, ajdodlarimiz hurmatini bajo etish bilan boshlagan. O‘z navbatida, Mirzo Ulug‘bek ham, shoir va sarkarda Bobur ham, shoirlar sultonni Alisher Navoiy ham ajdodlar ruhiga munosib, buyuk ishlarning davomchisi bo‘lishga intilganlar. Shuning bilan birga, xotira – tiriklik chashmasidir. Undan imon-e’tiqod bilan suv ichganlar avlodi qudratli va salohiyatli bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janglardan omon qaytgan bobolarimizga, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o‘zligini yo‘qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish tom ma’noda milliy qadriyatga aylandi. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e’zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardan, qolaversa, bu bugun tom ma’noda milliy qadriyatga aylandi.

Qur’oni karimda Alloh taolo: “Ulardan keyin (dunyoga) kelgan zotlar ayturlar: “Ey Robbimiz! O’zing bizlarni va bizdan ilgari iymon bilan o’tganlarni mag‘firat etgin va qalbilarimizda iymon keltirgan zotlarga nisbatan gina paydo qilmagin! Ey, Robbimiz! Albatta, sen mehribon va rahmli zotdirsan”, deb marhamat qiladi. (*Hashr surasi, 10-oyat*).

Ushbu oyat vafot etgan kishilarning orqalaridan xayrli duolar bilan eslash, yaxshi amallardan ekaniga dalolatdir.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida: “Bu dunyodan o’tgan birodarlarining yaxshi sifatlarini eslanglar, ularning yomon sifatlarini eslashdan saqlaninglar”, deb marhamat qilganlar.

Shunday ekan, o’tgan ajdodlarimizni hamisha xotirlab, bizlarga qoldirib ketgan boy ma’naviy-ma’rifiy meroslarini o’rganib, hayotimizga izchil tatbiq etishib borishimiz kerak.

Xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, muruvvat va himmat barcha bayramlarimiz singari “Xotira va qadrlash kuni” misolida ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Inson – hayot gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e’zozga loyiq. Xalqimizga xos xislatlar haqida aytadigan bo‘lsak, albatta, qadr-qimmat, mehr-oqibat kabi fazilatlar tilga olinadi. Keksalarni ardoqlash, ko‘makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo‘yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat. Ayniqsa, o’tganlarni xotirlash, aziz otaxon-u onaxonlarning duosini olmoqlik saodati o‘zgacha.

Xotira shunday ruhiy-ma’naviy qudratki, u insonning insonligini anglatuvchi, uni o’tmisht va istiqbol bilan bog‘lab turuvchi buyuk qadriyat, ilohiy qudratdir. Xotirlash – xalq manfaati uchun kurashgan, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilarni eslashdir. U olamdan o’tgan ajdodlarni eslashgina emas, asrlar mobaynida Vatan uchun kurashda halok bo‘lganlar xotirasini hurmatlash hamdir.

9-may – “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan xalqimizning ezgu fazilatlari yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Ikkinchiji jahon urushi dahshatlarini boshdan kechirgan kishilar osoyishtalikni dildan his qilgan, uning naqadar muhim ekanini anglab yetib, bu yo‘lda Vatanini, oilasini, o‘zligini himoya qilish uchun ikkilanmasdan jonini garovga qo‘yib xizmat qilganlar. Ming afsuski, hozirgi kunda ularning saflari tobora kamayib bormoqda. Yoshligining navqiron chog‘larini urush olovlarida, janggohlarda o‘tkazib, bugungi tinch va osoyishta hayotimiz uchun kurashgan insonlar jasorati beqiyosdir.

Shu o‘rinda Ikkinchiji jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o‘zligini yo‘qotmagan, yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish tom ma’noda milliy qadriyatga aylandi. Bu hol yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik, ajdodlarining eng yaxshi an’analardan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo‘lish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Xotirani asrash, xotirani ehtiyot qilish – bu bizning o‘zimiz va avlodlar oldidagi axloqiy burchimizdir. Xotira – bizning boyligimizdir.

Kechagi kun saboqlarini, xalqimiz kelajagi yo‘lida jon fido qilgan insonlarni xotirlash bugungi kunimizni qadrlashga o‘rgatadi. Xotira bu – tarix. U kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Shu bois, inson o‘z xotira boyliklarini qadrlaydi.

Bugun nishonlayotgan bayramimiz shunday bir kunki, u shu yurtda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi xonodon uchun bevosita daxldor bo‘lgan, ularning hayotida qandaydir chuqur iz qoldirgan tarixiy sanadir.

“Xotira muqaddas – xotira abad”
mavzusidagi badiiy – musiqiy kecha ssenariysi

Kuy pastlab, sahnaga hamma uchun birdek sevimli shoirimiz marhum Muhammad Yusuf timsolidagi o‘quvchi chiqib kelib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib deydi:

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar!

Vatanni aslida Vatan qilganlar,
Erk uchun jonlarin gulxan qilganlar,
Tillarin kessalar, ko‘zlarin o‘ysa,
Bir-biriga dil bilan suxan qilganlar.
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

Maqtov malham bo‘lmas, bu qurbanlarga,
Oyatda orom bor shahid jonlarga,
Qo‘llaring duoga katta och, elim,
Shukrona joizdir, erkli onlarga,
Vatanni aslida Vatan qilganlar.

1-boshlovchi: **Assalomu alaykum, osuda hayotimizning yo‘lboshchilarini, hurmatli otaxonlar, mehri ummon onaxonlar!** Hammamiz 9 May – “Xotira va qadrlash kuni” deb bilamiz hamda bu kunda o‘tganlarni yod etish, tiriklarni qadrlashni biz mustaqil yurt farzandlari uchun ham qarz, ham farz deb hisoblaymiz.

2-boshlovchi: Bugun siz azizlarga biz “Xotira - muqaddas, xotira – abad” tadbirimizni ochiq deb e’lon qilamiz.

1-boshlovchi:- Mana, siz hozirgina sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’rdan bahramand bo‘ldingiz. O‘zining qisqa umri, ammo ma’naviy olami, bisoti keng bu shoirimiz hayot bo‘lganlarida 60 bahorni qarshilar edilar. Biroq Maqsud Shayxzoda bobomiz aytganlaridek,

Odamlar bo‘ladiki, tirigida o‘likdir,
Odamlar bo‘ladiki, mangulikda tirikdir.

2-boshlovchi:

Ular o‘lmanalar mangu hayotlar,
Har jabbada bizga yo‘ldosh - qanotlar,
Ruhi poylariga qilaylik ta’zim,
Xotirlab yurmoqlik savobi azim.

1-boshlovchi: Xotira o‘zlikni anglashga, o‘tmishni doimo yodda tutishga bot-bot da‘vat etib turadigan muqaddas tuyg‘u. Inson o‘zining kim ekanligini xotira va qadr tuyg‘usi orqali chuqurroq anglaydi. Inson xotirasi muqaddas, u o‘z ajdodlarini esga olib, ezgu ishlarni yod etadi.

2-boshlovchi: Ajdodlarini xotirlash susaysa, ya’ni ajdodlar bilan avlodlar o‘rtasida uzilish ro‘y bersa, millat tanazzulga yuz tutar ekan. Xotira insonni kelajakka teran ko‘z bilan qarashga ham o‘rgatadi.

So‘ng 6 o‘quvchi “Xotira muqaddas” nomli she ‘rni ifodali o‘qiydilar.

G‘amgin xotiramni qitiqlab bugun,
Yorqin hissiyotga bo‘ldingiz sabab.
Ruhingiz bosh uzra uchar tunu kun,
Har bir ezgu ishda siz menga madad,
Xotira muqaddas, xotira abad.

-Puchmoq tarixning qa’riga ketgan,
Ne bir allomalar, ne bir botirlar.
Ularning har biri muhrlab bitgan,
Xalqim yuragiga o‘chmas xotirlar,
Xotira muqaddas, xotira abad.

Aslida Shiroqning qabridabir kun,
Zardo‘sht olovini yoqqan o‘zi men.
Muqaddas shu olov beradi uchqun,
Bugun shu olovdan nurlanar zamin.
Xotira muqaddas, xotira abad.

Doroning bosqini zavol bilganda
Nomingni muarrix bitib ketmadi.
Qaysidir ochofat yana kelganda,
Vatan hurmatiga aqli yetmadi,
Xotira muqaddas, xotira abad.

Bosqinchi o‘qiga chap bergen epchil,
Sibir surgunida Sirni o‘ylading.

Millat va elingdan deganda kechgil,
Vatan nomin, takror aytib to‘ymading.
Xotira muqaddas, xotira abad.

Sulton suyagini xor qilmagan hech,
Har bir qatra qonda keltirdik nishon.
Ezgu ish vaqtini topar erta-kech,
Siz bilan bugun Vatan nurafshon,
Xotira muqaddas, xotira abad.

1-boshlovchi: Aziz mehmonlar! Poytaxtimizdagi “Xotira maydoni”ga – inson Xotirasi va qadri e’zozlanuvchi qutlug‘ maskanga tavof uchun har kuni yuzlab ziyoratchi tashrif buyurar ekan.

2-boshlovchi: Darhahiqat, Xotira maydoniga qadam qo‘ygan inson borki, bu yerdan taassurotlaru hayratlarsiz ketmaydi. Kimdir Xotira kitobidan yaqin kishisining ismini ko‘rib, ko‘ziga yosh olsa, kimdir shu kunlarga yetib kelganiga shukrona aytadi. Motamsaro ona haykali poyi gulchambarlar bilan to‘lib ketadi. Bularning barchasi o‘tganlar ruhiga ehtirom ifodasidir.

1-boshlovchi: Bizning maktab o‘quvchilari ham shuncha yo‘l bosib bu maskanga ustozlarimiz boshchiligidagi qadam ranjida qiladilar.

Bir o‘quvchi: Ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib bordilar. U yerda bir otaxon bilan suhbatlashdik. “Bizning bolaligimiz jangu jadallarda, urush olovi qa’rida o‘tdi. Mana, 90 ga qarab ketayapmiz. Sizlarning duoji joningizni qilib yuramiz. Chunki sizlar Yurtboshimiz g‘amxo‘rligi, tashabbuskorligi tufayli, eng baxtiyor bolalarsiz. Buning qadriga yeting”, dedilar. Otaxonning gaplaridan keyin tinchlik-xotirjamlikning qadriga yanada ko‘proq yetish kerakligini tushundim.

1-boshlovchi: Janggohlarda jon fido etgan vatandoshlarimizdan qariyb 435 ming nafarining nomi “Xotira kitobi”ga manguga muhrlangan. Prezidentimiz tashabbuslari bilan yana 3 ming 725 nafar hamyurtimiz nomi aniqlanib, ushbu kitobga qayd etildi. Bular barchasi savob amallardir.

(“Zor edim bir ko‘rgali” qo‘shigi tinglanadi.)

1-boshlovchi: “Xotira va qadrlash kuni”ni otkazishdan maqsad - xalqimizning Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido etgan farzandlari xotirasini abadiylashtirish, bugun ham el-yurtimiz obro‘yini yuksaltirishga, biz yoshlarni tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarni ardoqlashdir.

2-boshlovchi: Aytish mumkinki, bu nafaqat jang maydonlarida qurbon bo‘lganlarni xotirlash, balki front ortida, urushdan keyingi yillarda fidokorona mehnat quchog‘da, bugungi dorilomon kunlarimizda ham yorug‘ dunyonni tark etib ketgan insonlarni xotirlash hamdir.

(Hazin kuy pardalari yuqorilashib, yana pasayadi.)

1-boshlovchi: Shuning bilan muhtaram qatnashchilar, bugungi tadbirimiz poyoniga yetib bormoqda. Biroq xotira - boqiy, xotira - abad.

2-boshlovchi: Tadbirda ishtirok yetib, bizga qulqoq tutganingiz, namoyish etganlarimizni tomosha qilganingiz uchun barchangizga minnatdorchilik bildiramiz.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Алланиязов Г Жасорат, матонат, эътибор ва эъзоз (9-май – Хотира ва қадрлаш кунига атаб) // Халқ сўзи
2. Никадамбаева X “Ёруғ кунларнинг гувоҳи бўлиш саодати” // Янги Ўзбекистон
3. Зияев Т 9-май “Хотира ва қадрлаш куни тарихдан олинган сабоқ” // Янги Ўзбекистон
4. Интернет манбалари